

*Toshkent arxitektura-qurilish  
universitet rektorining 2024-yil  
17-oktyabrdagi 403-sont  
buyrug'iga 5-ilova*

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida xodimlarining etika va  
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha  
YO'RIQNOMA**

**1- bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Yo'riqnomada Toshkent arxitektura-qurilish universitetida (keyingi orinlarda - Universitet) professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari (kegingi o'rnlarda- xodimlar), shuningdek talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqbil izlanuvchilarining (kegingi o'rnlarda – talabalar) etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitilishmi tashkil qilish bo'yicha tavsiya va qo'llanmalarni belgilab beradi.

2. Ushbu Yo'riqnomada korrupsiyaviy harakatlarni oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Universitetning boshqa ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Universitet xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish (keyingi o'rnlarda - O'qitish) dasturlari va materiallari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo'riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

**2-bob. O'qitishning asosiy tamoyillari**

4. Universitet xodimlarini o'qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:  
xolislik va ilmiylik - etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarni tayyorlash uchun mas'ul shaxslar ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta'minlaydi;

**amaliy jihatdan qulaylik** - Universitet xodimlarini O'qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo'llash imkoniyatini nazorat qilinishini o'z ichiga olishi lozim;

**ketma-ketlilik va tizimlilik** - etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallari, shuningdek Universitet xodimlarini o'qitish tartibi izchil va tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. O'qitish umumiy tushunchalar va voqeliklardan juz'iyalariga, oddiyidan murakkabga, boshlang'ichdan mukammalga va h.k o'tish asosida amalga oshiriladi;

**hammabopliz** - o'qitish Universitet xodimlarining joriy bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish, Universitetning barcha xodimlari uchun tushunarli bo'lgan o'quv materiallarini shakllantirish;

**differensiallangan yondashuv** - Universitetda korrupsiyaga qarshi o'qitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo'shimcha ravishda maxsus o'qitiladi;

**o'itish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish** - Universitet o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek Universitet xodimlari tomonidan bilimlar o'zlashtirilganini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi.

### **3-bob. O'qitishning ustuvor vazifalari**

5. O'qitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarini shakllantirishda Universitet xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish uchun ma'sul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Universitetning funksiya va tartib-taomillarida paydo bo'lish shakllari va o'ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlari to'g'risida umumiy tasavurni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan belgilangan etika va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning axloqiy qadriyatlari va Universitetning boshqa ichki hujjalari qat'iy va so'zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

Universitet xodimlarini Universitetda amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurash tamoyyllari, talablari va tartib-taomillari bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor, Universitetning etik xulq-atvor qoidalari buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish.

### **4-bob. O'qitishni ishlab chiqish va o'tkazishga mas'ul shaxslar**

6. Universitetning Inson resurslarini boshqarish bo'limi Universitet xodimlarini o'qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek Universitetda bunday o'qitishni monitoring va nazarat qilish uchun mas'uldir.

7. Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (keyingi odinlarda - Icliки nazorat tuzilmasi) Universitet xodimlarini o'qitish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o'quv materiallarni ishlab chiqadi, o'qitish o'tkazilishini muvofiqlashtiradi.

8. Universitetning Inson resurslarini boshqarish bo'limi o'qitish intizomi va unga doir axborotlar yig'ilishini nazorat qiladi.

9. Universitet Icliki nazorat tuzilmasi va Inson resurslarni boshqarish bo'limi tegishli tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy Universitetlar bilan tuzilgan shartnomalar (Universitetda belgilangan tartibda) asosida o'quv materiallarini tayyorlash hamda o'qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslarni jalg qilishi mumkin.

## **5-bob. O'qitish turlari va shakllari**

10. O'qitish quyidagi o'quv dasturlarini ko'zda tutishi lozim:

- barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish;
- Universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish;
- Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish.

11. Umumiy korrupsiyaga qarshi o'qitish va Universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish Universitetning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

12. Universitetning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish amaliy yo'naltirilgan bo'lismi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo'lismi yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari jumladan o'rnatilgan ta'qiqlar, cheklar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo'yilgan talablar, Universitet xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlardan ketma-ketligiga doir ichki hujjalarni bilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotiga doir bilimlar;

oligan bilimlarni qo'llash ko'nikmalari, jumladan Universitetning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Universitetda o'matilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qoilay bilish.

Korruptsiyaga qarshi umumiy o'qitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yo'riqnomaga 1-ilovada keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi.

13. Universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish Universitetning barcha xodimlari uchun amaliy yo'naltirilgan bo'lismi va Universitetda qabul qilingan etika tamoyillari va qoidalariga doir yangi bilimlarga ega bo'lismi yoki bor bilimlar takrorlanishini ta'minlashi lozim.

14. Universitet xodimlari umumiy korruptsiyaga qarshi o'qitish va Universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari natijalari bo'yicha o'rganilgan material qanchalik o'zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingen bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

15. Universitet xodimlari savollarning kamida 80 foiziga to'g'ri javob bergen taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish va Universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari muvaffaqiyatli o'zlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80 foizidan kamiga to'g'ri javob bergen bo'lsa, u takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida topshirishi mumkin.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi 0'qitish korrupsiyaga qarshi umumiy 0'qitishdan mustaqil (qo'shimcha) ravishda o'kaziladi.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim:

kormpsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

kormpsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiya va tartib-taomillarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funksiyalarni amalga oshirishda qoilaniladigan qo'shimcha talab va tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

19. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o'qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (taslikilotlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

20. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg'or xalqaro metodikalarni o'rganishni o'z ichiga olishi lozim.

21. Ushbu Yo'riqnomaning 19-bandida ko'rsatib o'tilgan malaka oshirish va treninglardan o4ish yiliga kamida 10 (o'n) soatni o'z ichiga olishi lozim.

## **6-bob. O'qitish muddatlari va davriyiligi**

22. O'qitish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o'qitish,

uchinchi shaxslar bilan qo'shma konferensiyalar, yigdlishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

23. Universitet xodimlari etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o'qitiladi.

24. Universitet xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yiliga bir martadan ko'p o'qitiladi:

- xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

- lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kirsa;

Universitetda korrupsiyaviy harakatlar bilan bog'liq holatlар aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funksiya/tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi o'ttganda;

Universitet rektori qaroriga muvofiq.

25. Universitetga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o'tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o'tgan vaqtidan boshlab 30 kun ichida korrupsiyaga qarshi va universitet xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitilishi shart.

O'quv sanasini belgilashda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishning tasdiqlangan yillik jadvali, guruhda bo'sh o'rinalar borligi (kunduzgi o'quv shakli uchun) va mazkur bobning 22-23-bandlarida ko'zda tutilgan o'qitish muddatlari va davriyiligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish va universitet xodimlarining etik xulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish barcha xodimlar uchun Kadrlar tuzilmasi tomonidan yiliga bir martadan kam bo'limgan davriylikda belgilanadi.

26. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgani bilan bog'liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

27. Kadrlar tuzilmalari har yili o'qitish jadvalini tuzadi va **31-dekabrgacha** uni rektorga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

O'qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o'qitish muddatlari hisobga olinadi.

o'qitish jadvalida albatta o'qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o'qitish tayinlangan lavozimlar ko'rsatiladi.

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Kadrlar tuzilmasining mas'ul xodimlari o'qitish boslilanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda 0'qish imkoniyati bo'lmasa (kunduzgi o'quv shakli uchun, masalan yuqori mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejallashtirilgan ta'til singari asosli sabablar), xodim 0'qish boslilanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktimiay o'qishni boshqa sanaga ko'chirish maqsadida Kadrlar tuzilmasini ogohlantirib qo'yishi lozim.

## **7-bob. O'qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash**

28. Kadrlar tuzilmasi universitet xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitilishiga doir ma'lumotlarni yig'ib boradi va ularni har chorakda universitetning Ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etadi.

Universitetning Ichki nazorat tuzilmasi olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o'quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo'yyicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallari korrektirovka qilinishini (zarurat tug'ilganda) ta'minlaydi.

29. Xodim unga tayinlangan o'quv yoki uning natijalari bo'yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o'tmasa, Kadrlar tuzilmasi rahbari bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegislili qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

30. O'qitish jadvali, yo'qlama varaqalari, test natijalari, xodim o'qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Kadrlar tuzilmasida saqlanadi.

## **8-bob. Yakuniy qoidalar**

31. Ushbu Yo'riqnomada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki hujjatlaridagi o'zgarislilar kiritilganda, korrupsiyaga qarshi o'qitishini tashkil etish sohasidagi ilg'or xalqaro amaliyot o'zgargan taqdirda qayta ko'rib chiqiladi. Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi mazkur Yo'riqnomaga o'zgartirish kiritish uchun javobgar hisoblanadi.

32. Universitet xodimi egallab turgan lavozimi, ish stoji, mavqeい va boshqa omillardan qat'iy nazar mazkur Yo'riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Toshkent arxitektura qurilish universiteti  
xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish  
sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha  
yo'riqnomaga  
ilova

### **Universitet xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish umumiy o'qitishning TAXMINIY MAVZULARI**

<b>Mavzu</b>	<b>Komponentlar</b>
Korrupsiyaning tabiatи	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Universitetda kornipsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish IxTyicha xalqaro amaliyot
Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Universitetdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora- tadbirlar sharhi; Universitetdagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; Kornipsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bodinmalarning majburiyat va vakolatlari; Ma'muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma'muriy to'siq va byurokratzmni bartaraf etish; Korrupsiyaviy harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtagi harakatlar; Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo'riqnomma, xabarlarni ko'rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiyaviy xavf- xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar	Universitetdagi xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari; Nazorat-ruxsat berish funksiyalari vatartib-taomillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Sovg'alar va ishbilarmonlik mehmono'stlik belgilari berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf- xatarlar; Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqalar bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xodimlarni Universitetga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Binolarni ijara berish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-liatarlar; O'zaro hamkorlik va tasamifiy universitetlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Tanlovlardan bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;

	<p>Turli hujjat turlari ekspertizasini o'tkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Universitet faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>
Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik	<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari bo'yicha sud amaliyoti sharhi.</p>
Kornipsiyaga qarshi kurashishda Fuqarolik jamiyati roli	<p>Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida;</p> <p>Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish;</p> <p>Fuqarolik jamiyati institutlarining Universitet bilan o'zaro hamkorligi.</p>

